

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

## TURKIY KITOBIIY EPOSLARDA MUBOLAG‘A SAN‘ATI: TABLIG‘, IRG‘OQ, G‘ULUVV

**Davronbek ORIPOV,**

*Renessans ta‘lim universiteti o‘qituvchisi,  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

[bekdavr@mail.ru](mailto:bekdavr@mail.ru)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290762>

**Annotatsiya.** Dunyo turkiyshunoslari va folklorshunoslarini uzoq yillardan beri turkiy dostonlar, xususan, “Kitobi Dadam Qo‘rqud” va “O‘g‘uznoma” kabi kitobiy eposlarda tarannum etilgan qahramonlik, vatanparvarlik kabi yuksak g‘oyalar o‘ziga jalb etib keladi.

Ushbu maqolada turkiy kitobiy eposlardagi mubolag‘a san‘atining uch turi: tablig‘, irg‘oq va g‘uluvv haqida so‘z borib, tadqiq etiladi. Muallif tomonidan ma‘lum bir xulosalarga kelinadi.

**Kalit so‘zlar:** qahramonlik, “Kitobi Dadam Qo‘rqud”, mubolag‘a san‘ati, Tangri, “O‘g‘uznoma”, obraz, element.

**Аннотация.** Тюркологов и фольклористов мира уже давно привлекают такие высокие идеи, как героизм, патриотизм, воспетые в тюркских эпосах, в частности, в таких книжных эпосах, как “Книга моего деда Коркуда” и “Огуз-наме”.

В этой статье рассматриваются и исследуются три вида искусства преувеличения в тюркских книжных эпосах: таблыг, иргак и гулуwв. К определенным выводам приходит автор.

**Ключевые слова:** героизм, “Книга моего деда Коркуда”, искусство преувеличения, Тангри (Бог), “Огуз-наме”, образ, элемент.

**Annotation.** Turkologists and folklorists of the world have long been attracted by such lofty ideas as heroism and patriotism, sung in Turkic epics, in particular, in such book epics as “Kitabi Dadam Korkud” and “Oguz-name”.

This article examines and explores three types of exaggeration art in the Turkic book epics: tablig, irgak and guluvv.

**Keywords:** heroism, “Kitabi Dadam Korkud”, art mubolaga, Tangri (God), “Oguz-name”, image, element.

She‘riy san‘atlar ichida mubolag‘a eposlarda, xususan, turkiy eposlarda ko‘p uchrashi bilan boshqa janrlardan farq qiladi. Mubolag‘a arab tilida “kattalashtirish”, “kuchaytirish” ma‘nolarini anglatib, adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki harakatini kuchaytirib, bo‘rttirib ifodalaydi.

Mubolag‘a uch turga bo‘linadi:

1) **Tablig‘** – aqlan ishonish mumkin bo‘lgan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo‘lgan mubolag‘a.

2) **Irg‘oq** –belgi yoki harakatni aqlan ishonish mumkin bo‘lsa ham, hayotda yuz berishi mumkin bo‘lmagan tarzda kuchaytirib tasvirlash.

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

3) **G’uluvv** – aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo‘lmaydigan tarzda ifodalash.

Tadqiqot natijasida har ikkala kitobiy epos matnida mubolag‘a san‘atining uchala turiga ham duch kelindi. “O‘g‘uznoma”dan boshlaymiz. Kuzatishlarimiz natijasida mubolag‘aning g‘uluvv turi eposning faqatgina 2-qismida qayd etildi:

2.

II. tilädi, tili (gä) kälä bashladı. Kırık күндүн соң

III. бәдүкләди, жүрүди, оинадї. Адақї уд адақї дәг, бәлләри

IV. бөри бәлләри дәг, јақрї кїш јақрї дәг, көгүзү

V. адуқ көгүзү дәг әрдї. Бәдәнїнүн камақї

VI. түг түлүклүг әрдї, јїлкїлар күтәјә

VII. туруп әрдї, атларқа мїнә туруп әрдї, кїк

VIII. ав авлаја туруп әрдї; күнләрдән [Sherbak A. 1:23];

(Ma‘nosi: undan so‘ng boshqa ichmadi, yaxshi go‘sh, ovqat, ichimlik so‘radi, tilga kira boshladi. Qirq kundan so‘ng ulg‘aydi, yurdi, o‘ynadi. Oyog‘i ho‘kiz oyog‘idek, bellari bo‘rining bellaridek, yag‘rini burgut yag‘riniday, ko‘kragi ayiq ko‘kragiday edi. Butun badani qalin tuk bilan qoplangan edi, yilqilar ko‘tara olar edi, otlarga mina olar edi, kiyik oviga ham borar edi). [Rahmonov N. 2:165];

Qirq kunlik chaqaloqning ulg‘ayib, xom et, sharob so‘rashi, badanini butkul qalin tuk qoplagani, yovvoyi hayvonlarni ovlashi hayotda ro‘y bermaganidek, aql ham bovar qilmasligi tabiiy, albatta. Roviy tomonidan bu o‘rinda g‘uluvv san‘ati zargarona qo‘llangan bo‘lib, mubolag‘a qilish cho‘qqiga chiqqan desak, yanglishmagan bo‘lamiz.

Mubolag‘aning irg‘oq turi epos matni transkripsiyasida ko‘p uchradi. Jumladan, eposning 7-qismiga e‘tibor qaratsak:

7.

V. алтун казук дәг әрдї. Ошул кїз андақ

VI. көрүклүг әрдї кїм күлсә көк

VII. тәңрї күлә туруп; ј(ї)қласа, көк тәңрї

VIII. ј(ї)қлаја туруп. Оқуз қаған

IX. анї көрдүктә өзі калмадї, кәттї, сәвдї, алдї, анун [Sherbak A. 3:28];

(Ma‘nosi: U qiz shunday chiroyli ediki, kulsa, ko‘m-ko‘k osmon kuladi, yig‘lasa ko‘m-ko‘k osmon yig‘laydi. O‘g‘uz xoqon uni ko‘rib o‘zidan ketdi, sevib qoldi). Qizning shunchalik darajada ko‘rkam ekanligi, kulsa Ko‘k Tangri kulishi, yig‘lasa, Ko‘k Tangri yig‘lashiga aqlan ishonib bo‘lsa-da, hayotda ro‘y berishi aslo

# “TURKIY XALQLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

mumkin emas voqea sifatida qarash mumkin. Shuningdek, ko‘k yolli bo‘rining yorug‘lik ichidan chiqib kelib, O‘g‘uz xoqonga murojaat qilishi ham irg‘oq san‘atiga yaqqol misol bo‘la oladi:

16.

- III. куріканіҗа күн дәг бір
- IV. җарук кірді. Ол җаруктун көк
- V. түлүклүг, көк җаллуқ бәдүк
- VI. бір эркәк бөрі чікті. Ошул бөрі Оғуз
- VII. қағанға сөз бәріб туруп эрді.
- VIII. Такі дэди кім аі аі Оғуз Урум
- IX. үстігә сән атлар боласән. [Sherbak A.4:37];

(Ma‘nosi: O‘g‘uz xoqonning qarorgohiga qushday bir nur kirdi. U nurdan ko‘k tukli, ko‘k yolli katta bir erkak bo‘ri chiqdi. O‘sha bo‘ri O‘g‘uz xoqonga shunday xabar berdi: dediki, ey, ey, O‘g‘uz, Urum ustiga sen jo‘namoqchi bo‘layapsan). [Rahmonov N. 5:168];

G‘uluvv san‘atiga yaqinroq bo‘lgan ushbu parcha nazarimizda, ko‘proq irg‘oqqa mos keladi. Sababi, O‘g‘uz qo‘rg‘oniga yorug‘lik tushib, undan bo‘ri chiqib kelishi hamda O‘g‘uzxonga so‘z qotishiga aqlan ishonsa bo‘ladi.

Tablig‘ – uyg‘ur-turk yozuvidagi “O‘g‘uznoma”da eng ko‘p uchragan mubolag‘a san‘ati turi bo‘ldi. Sababi esa voqealarning real hayotda ham ro‘y berishi mumkin qilib tasvirlanganida. Misollarga yuzlanamiz:

9.

- I. бір кіз бар эрді. җалғуз олтуруп эрді.
  - II. Јакші көрүклүг бір кіз эрді. Анун
  - III. көзү көктүн күкрәк эрді,
  - IV. анун сачі мўрән усуҗі дәг, анун
  - V. тиші үнјү дәг эрді. Андаҗ көрүк-
  - VI. лүг эрді кім җэрнің әл күні ані көрсә
  - VII. аі аі ах ах өләрбіз дэб, сүттән
  - VIII. кумуз бола туруплар. Оғуз қаған [Sherbak A.6:30];
- Ma‘nosi:

IX

- 1. Yolg‘iz o‘zi o‘tirar edi.
- 2. Yaxshi, ko‘rkam bir qiz edi.
- 3. Uning ko‘zi ko‘kdan ham ko‘kroq edi.

# “TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

4. Sochlari daryo mavjiday,
5. Tishlari injuday edi.
6. Shunchalik chiroyli edikim: uni ko‘rgan yer insonlari.
7. “Hoy -hoy, voh-voh o‘lib qolamiz” der,
8. Va sutdan qimizga aylanar edilar. [Rahmonov N. 7:13];

Ko‘rkam qizning ko‘zlari ko‘kka, sochlari daryo mavjiga, tishlari injuga o‘xshatilishi, uni ko‘rgan yer insonlari yuragini ushlab qolishi xayolda ham, hayotda ham ro‘y berishi mumkin holatdir.

Bundan tashqari:

19.

I. Әл күнләрниң көңүлларидә

II. көб тәлим болдї кайғу. Тутулунч урушунч

III. андағ жаман болдї ким Итил мўрән-

IV. нуң суғї кип кизил сип сінгир дәғ

V. болдї. Оғуз қаған баштї, Урум қаған [Sherbak A.6:40];

(Ma‘nosi: Odamlarning yuragida ko‘p qayg‘ular toshdi. Olishuvlar, janglar shunday yomon bo‘ldiki, Itil daryosining suvi qip-qizil qon singari bo‘ldi, O‘g‘uz xoqon yengdi. Urum xoqon qochdi). [Rahmonov N. 8:168];

El-yurtning ko‘nglini chuqur qayg‘u qoplashi, daryo suvi qip-qizil qonga belanishi hayotda ham ro‘y berishi mumkin bo‘lgan holdir. Shu bois tablig‘ san‘ati roviy tomonidan juda mohirlik bilan, ishonarli tarzda tavsirlangan. Umuman olganda, matnda **“бир көл арас(и)нда (j)йғачнуң кабуचाғиңда бир киз”**(bir o‘tloq orasidagi yog‘och kavagidagi bir qiz), **“тағамї алтундан, тундукларї такї күмүштүн, калїк(а)ларї тэмүрдүн бөдүк бир үй”** (tomi oltindan, mo‘rilari kumushdan, eshiklari temirdan katta bir uy), **“чэригә, нүкәрләригә әл күнигә андағ улуг өлүг барғу түшти ким жүкләмәккә ат, кағатір, уд азлїк болдї”** (askarlariga, lashkarlariga, el-xalqiga shunchalik ko‘p o‘lik o‘lja tushdikim, yuklamoqqa ot, xachir, xo‘kiz ozlik qildi) va shu kabi tablig‘ san‘ati qo‘llangan jummalarni uchratish mumkin. Bu esa tabiiyki, mubolag‘aning har uchala turi ham “O‘g‘uznoma” kitobiy eposida unumli, o‘rinli hamda ishonarli tarzda ifodalanganini anglatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mubolag‘a san‘ati, xususan, uning uch ko‘rinishi “Kitobi Dadam Qo‘rqut” kitobiy eposida “O‘g‘uznoma”ga nisbatan ko‘proq uchradi. Bu uning matn jihatidan kattaroq ekaniga bog‘liq bo‘lsa kerak. Shuningdek, “Kitobi Dadam Qo‘rqut”da tablig‘ hamda irg‘oqqa nisbatan g‘uluvv ko‘proq uchrashi bilan

# “TURKIY XALQLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

e’tiborlidir. Misollarga yuzlanamiz. Epos matnida yigirmaga yaqin mubolag‘a san’ati qo‘llangan bo‘lsa, shuning aksariyat qismida g‘uluvv qo‘llanilgan.

Epos qo‘shiqlari matniga nazar solamiz: “**Altı yüz kafir dæxi mænim üzærimæ gældi. İki qardaşım şæhid oldı. Üç yüz kafir öldürdüm, ğæza etdim...**” [Kitabi-Dədə Qorqud. 9:43]; (Ma’nosi: Olti yuz dushman ustimga bostirib keldi. Ikki qardoshim shahid bo‘ldi. Uch yuz dushmanni o‘ldirdim, g‘azot etdim). [Muhammad Sharif. 10:39];

Bir yoki uch kishining quolsiz olti yuz nafar dushmanga qarshi kurashi hamda cho‘ponning bir o‘zi uch yuzini yer tishlatishi albatta, aqlga sig‘maydi. Solur Qozonning alpligi uning cho‘poniga ham xos bo‘lishi mumkinligi inobatga olingan taqdirda ham, bu ta’rif g‘uluvv san’atiga xosdir.

Qozonning tog‘asi Aruz Bahodir ta’rifi bundan ham mubolag‘ali tarzda ifoda etiladi: “**Altmış ögæc dærisindæn kürk eylæsæ, topuqlarını örtmøyæn, altı ögæc dærisindæn külah ætsæ, qulaqlarını örtmøyæn, qolı-budı xaranca, uzun baldırları incæ, Qazan bæğüñ dayısı At ağızlu Aruz qoca çapar yetdi...**”. [Muhammad Sharif. 11:49]; (Ma’nosi: Oltmish taka terisidan po‘stin tiksa, to‘pig‘iga yetmagan, olti taka terisidan kuloh tiksa, qulog‘iga yetmagan, qo‘li-buti uzun, uzun boldirlari inja, Qozonbekning tog‘asi otag‘izli Aruz Bahodir yelday yetib keldi:). [Muhammad Sharif. 12:47];

Bonu Chechakning dali akasi Dali Qoracharning Dada Qo‘rqutga aytganlari bundanda mubolag‘ali tus olgan: “**Dælü Qarçar aydır: Biñ buĝra gætürüñ kim, maya görmemiş ola. Biñ dæxi ayĝır gætürüñ kim, heç qısrğa aşmamış ola. Biñ dæxi qoyun görmemiş qoç gætürüñ. Biñ dæ quyrusız-qulaqsız köpæk gætürüñ. Biñ dæxi büre gætürüñ mana**”, – dedi. [Kitabi-Dədə Qorqud. 13:59];

(Ma’nosi: Dali Qarchar aytur: “Ming bug‘ro tuya keltiringki, urg‘ochi tuya ko‘rmagan bo‘lsin. Yana ming ayg‘ir keltiringki, baytalga hech yo‘lamagan bo‘lsin. Yana qo‘y ko‘rmagan mingta qo‘chqor keltiring. Yana quyrug‘i, qulog‘i kesilgan mingta ko‘ppak keltiring. Menga yana mingta burga keltiring, – dedi). [Kitabi-Dədə Qorqud. 14:59];

Mingta urg‘ochi tuya ko‘rmagan tuya, mingta baytalga yaqin yo‘lamagan ayg‘ir, qo‘y ko‘rmagan ming qo‘chqor, qulog‘i hamda quyrug‘i kesilgan ming ko‘ppak tasvirining o‘ziyoq mubolag‘aning haddan ziyod oshirib ko‘rsatilganini bildiradi. Ming burga esa mubolag‘aning cho‘qqisiga – g‘uluvvga aloqador. Bundan holat real hayot tugul, xayolda ham gavgdalanishi amrimahol. Bizningcha, g‘uluvv san’atining ishlatilishi obrazlarning bo‘yoqdorligini yanada oshirishga, ularga ilohiylik, alplik elementlari xosligini uqtirish uchun qo‘llanilgan.

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Shuningdek, qo‘shiqlarda “O‘nggu so‘liga ikkita qo‘sha yoy tortar edi. Otgan o‘qi yerga tushmasdi”, “oltmish tutam nayzasining uchida dushmanni bo‘kirtirgan”, “qora buqa terisidan qilingan yopinchiqli beshikda ulg‘aygan, achchig‘i chiqqanda qora toshni kul qilgan, mo‘ylovini yetti joyidan tugib olgan” kabi tablig‘, “achchig‘i chiqqanda mo‘ylovidan qon tomgan”, “oltmish ming dushmanga qon qustirgan”, “Qoraja cho‘pon bir siltandi, ulkan og‘ochni tomiri bilan qo‘pordi, yelkasiga oldi”, “Qorajiq cho‘pon yog‘iyning uch yuztasini palaxmon toshi bilan yerga yiqdi. Toshi tugadi, qo‘y demadi, echki demadi, sopqoniga solib otaverdi, dushmanlarni yer tishlataverdi” kabi ko‘plab irg‘oq san‘ati namunalariga ham murojaat qilingan.

Eposlar tarkibidagi mubolag‘a san‘atlari, xossatan, tablig‘, irg‘oq hamda g‘uluvv tahlili orqali uyg‘ur-turk yozuvidagi “O‘g‘uznoma” matnidan ko‘ra, turk-o‘g‘uz tilida bizgacha yetib kelgan “Kitobi Dadam Qo‘rqut”da mubolag‘a san‘atlari ko‘pchilikni tashkil qildi.

Bundan tashqari, “Kitobi Dadam Qo‘rqut”da mubolag‘aning g‘uluvv turi soni ko‘pligi, epos qo‘shiqlarida yetakchi o‘rinni egallagani ayon bo‘ldi. Bu esa nazarimizda, Qo‘rqut Ota obrazi birlashtirgan qo‘shiqlar qog‘ozga tushirilgan davrda mubolag‘a san‘ati turlari taraqqiy etgani, ommalashganidan darakdir.

“O‘g‘uznoma”da badiiy san‘atlarning kam uchrashi, g‘uluvvning yetakchilik qilishi, undagi obrazlar, syujet tizimining transformatsiyaga uchragan holda “Kitobi Dadam Qo‘rqut” qo‘shiqlarida uchrashi, uning birlamchi, turk-o‘g‘uz eposiga bevosita hamda bilvosita ta‘sir ko‘rsatgan degan xulosaga kelishimizga zamin yaratadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kitabi-Dədə Qorqud. – Baki: Öndər nəşriyyat, 2004. – B.151.
2. Kitobi Dada Qo‘rqut. Tarjimon: Boboxon Muhammad Sharif. – Boku: Nusxa, 2022. – B.162.
3. Щербак А.М. Огузنامه. Мухаббатنامه. Памятники древнеуйгурской и староузбекской письменности. – М.: Изд-во восточной литературы, 1959. – С. 23.
4. Ўғузнома ёки Ўғуз хоқон ҳақида достон. Н.Раҳмонов табдили // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1989. – № 4. –Б. 165.
5. Ўғузнома. – Тошкент: O‘zbekiston, 2007. – Б. 13.